

# O'ZBEKISTON NEFT-GAZ SANOATIDA INVESTITSIYA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

**Olimova Dilsuz Abduxalimovna**

Shahrisabz davlat pedagogika Instituti Geografiya kafedrası o'qituvchisi

**Qahramonova Nozima Jonibek qizi**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Geografiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi

**Allamurodov Shohjaxon Bahodir o'g'li**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Geografiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmog'i hisoblangan neft-gaz sanoatida investitsiya siyosatini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda sohaning bugungi holati, mavjud texnologik va iqtisodiy muammolar, shuningdek, investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan islohotlarning ahamiyati yoritilgan. Maqolada investitsiya siyosatining nazariy asoslari va uning samaradorligini belgilovchi omillar — huquqiy barqarorlik, iqtisodiy risklarni kamaytirish va infratuzilma rivoji kabi jihatlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, neft-gaz sohasiga xorijiy kapitalni jalb qilish va ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.*

***Kalit so'zlar.** Neft-gaz sanoati, investitsiya siyosati, O'zbekneftgaz, iqtisodiy samaradorlik, modernizatsiya, geologik-qidiruv, xorijiy investitsiyalar, investitsiya muhiti, strategik resurslar, texnologik eskirish.*

## НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ В НЕФТЕГАЗОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА

**Олимова Дилсуз Абдухалимовна**

преподаватель кафедры географии Шахрисабзского государственного педагогического  
института

**Кахрамонова Нозима Жонибек кизи**

студентка 1 курса направления «География» Шахрисабзского государственного  
педагогического института

**Алламуродов Шохжахон Бахадир угли**

студентка 1 курса направления «География» Шахрисабзского государственного  
педагогического института

***Аннотация.** В данной статье анализируются вопросы совершенствования инвестиционной политики в нефтегазовой промышленности, являющейся стратегической отраслью экономики Узбекистана. В исследовании освещены текущее состояние отрасли, существующие технологические и экономические проблемы, а также значимость реформ, направленных на улучшение инвестиционного климата. Научно обоснованы теоретические основы инвестиционной политики и факторы, определяющие её эффективность, такие как правовая стабильность, снижение экономических рисков и развитие инфраструктуры. Также выдвинуты практические рекомендации по привлечению иностранного капитала в нефтегазовый сектор и модернизации производственных мощностей.*

***Ключевые слова.** Нефтегазовая промышленность, инвестиционная политика, АО «Узбекнефтегаз», экономическая эффективность, модернизация, геологоразведка,*

*иностранные инвестиции, инвестиционный климат, стратегические ресурсы, технологический износ.*

## **STRATEGIC WAYS TO ENHANCE THE INVESTMENT POLICY WITHIN THE UZBEKISTANI OIL AND GAS SECTOR**

**Olimova Dilsuz Abduxalimovna**

Teacher of the Geography Department at Shahrisabz State Pedagogical Institute.

**Qahramonova Nozima Jonibek qizi**

1-st year student of the Geography department of the Shahrisabz State Pedagogical Institute

**Allamurodov Shohjaxon Bahodir o'g'li**

1-st year student of the Geography department of the Shahrisabz State Pedagogical Institute

***Abstract.** This article analyzes the issues of improving investment policy in the oil and gas industry, which is considered a strategic sector of Uzbekistan's economy. The study highlights the current state of the industry, existing technological and economic challenges, as well as the significance of reforms aimed at improving the investment climate. The theoretical foundations of investment policy and the factors determining its effectiveness—such as legal stability, mitigation of economic risks, and infrastructure development—are scientifically grounded. Furthermore, practical recommendations for attracting foreign capital to the oil and gas sector and modernizing production capacities are put forward.*

***Keywords.** Oil and gas industry, investment policy, Uzbekneftgaz, economic efficiency, modernization, geological exploration, foreign investment, investment climate, strategic resources, technological obsolescence.*

**Kirish.** Yoqilg'i-energetika resurslari har qanday davlat iqtisodiyotining strategik tayanch tarmoqlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi tabiiy gaz zaxiralari bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Shu sababli neft-gaz sanoati mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi va uning barqaror rivojlanishi davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda jahon energetika bozorida yuz berayotgan o'zgarishlar, global raqobatning kuchayishi, ekologik talablarning oshishi va investitsiya oqimlarining qayta taqsimlanishi O'zbekiston neft-gaz sanoatida investitsiya siyosatini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston neft-gaz sanoatida investitsiya siyosatini takomillashtirishning ilmiy asoslangan yo'nalishlarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

O'zbekiston neft-gaz sanoati mustaqillikdan keyingi davrda bosqichma-bosqich rivojlanib kelmoqda. Asosiy ishlab chiqarish hududlari Qashqadaryo, Buxoro-Xiva va Surxondaryo viloyatlari hisoblanadi.

Mamlakatda tabiiy gaz qazib olish hajmi nisbatan yuqori bo‘lib, ichki iste‘mol va eksport yo‘nalishlarida muhim rol o‘ynaydi. “O‘zbekneftgaz” AJ tarmoqning asosiy operatori sifatida faoliyat yuritadi.

Shu bilan birga, sanoatda quyidagi muammolar mavjud:

- asosiy uskunalarning texnologik eskirishi;
- geologik qidiruv ishlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- investitsiya hajmining yetarli emasligi;
- qazib olish samaradorligining pasayishi.

Investitsiya siyosati iqtisodiyot tarmoqlariga kapital jalb etish va uni samarali taqsimlashga qaratilgan davlat strategiyasidir. Investitsiya siyosati — bu davlat tomonidan iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kapital mablag‘larni jalb etish, ularni samarali taqsimlash va ulardan oqilona foydalanishni ta‘minlashga qaratilgan strategik chora-tadbirlar tizimidir. U mamlakatning iqtisodiy o‘rishini tezlashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda innovatsion rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Keng ma‘noda investitsiya siyosati faqat mablag‘ jalb qilish bilan cheklanmaydi, balki u investitsiya muhitini shakllantirish, qulay huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratish, xorijiy va ichki investorlar uchun kafolatlar berish kabi muhim yo‘nalishlarni ham o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda davlat iqtisodiyotning ustuvor sohalari aniq qayd etiladi va investitsiyalarni aynan shu yo‘nalishlarga yo‘naltirishga harakat qiladi.

Investitsiya siyosatining asosiy maqsadi — milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishdir. Buning uchun ishlab chiqarish tarmoqlariga zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish, infratuzilmani rivojlantirish, energiya va xomashyo resurslaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, sanoat, energetika, transport, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalari investitsiyalarni ko‘p talab qiladigan strategik yo‘nalishlar hisoblanadi.

Shuningdek, investitsiya siyosati iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Kapital oqimining to'g'ri boshqarilishi inflyatsiyani kamaytirish, byudjet daromadlarini oshirish va iqtisodiy muvozanatni saqlashga yordam beradi. Davlat bu jarayonda soliq imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar, kredit siyosati va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanadi.

Neft-gaz sanoatida investitsiya siyosati quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- geologik-qidiruv ishlarini moliyalashtirish;
- yangi konlarni o'zlashtirish;
- qazib olish texnologiyalarini modernizatsiya qilish;
- qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish.

Investitsiya siyosatining samaradorligi — bu davlat tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiyalarni jalb qilish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonlarining iqtisodiy natija berish darajasini ifodalovchi muhim ko'rsatkichdir. U investitsiya mablag'larining iqtisodiy o'sishga, ishlab chiqarish samaradorligiga hamda ijtimoiy farovonlikka qay darajada ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini baholaydi.

Samarali investitsiya siyosati, avvalo, cheklangan moliyaviy resurslardan maksimal iqtisodiy foyda olishga xizmat qiladi. Bunda kapital qo'yilmalar ustuvor tarmoqlarga yo'naltirilib, yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va infratuzilmani rivojlantirish orqali iqtisodiy natijadorlik oshiriladi. Natijada yalpi ichki mahsulot o'sishi, bandlik darajasining yaxshilanishi va eksport salohiyatining kuchayishi kuzatiladi.

Shuningdek, investitsiya siyosatining samaradorligi investitsiya muhitining barqarorligi, huquqiy kafolatlar, soliq va moliyaviy imtiyozlar hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining ishlashi bilan ham belgilanadi. Ushbu omillar investorlar ishonchini oshirib, kapital oqimining barqarorligini ta'minlaydi.

Ilmiy jihatdan yondashilganda, investitsiya siyosati samaradorligi resurslardan foydalanish darajasi, investitsiya qaytimi (ROI), iqtisodiy o'sish

sur'atlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy natijalar orqali baholanadi. Shunday qilib, samarali investitsiya siyosati mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Investitsiya siyosatining samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq: huquqiy barqarorlik; investorlarga yaratilgan sharoit; iqtisodiy risklarning kamaytirilishi; infratuzilma rivoji.

So'nggi yillarda O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy va ichki investitsiyalar oqimini oshirish, biznes yuritish uchun qulay sharoitlar yaratish hamda iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga qaratilgan.

Xususan, investitsiya jarayonlarini soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va "yagona darcha" tizimini joriy etish orqali investorlar uchun qulay muhit shakllantirilmoqda. Shuningdek, soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish ham investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish, infratuzilma loyihalariga xususiy kapitalni jalb etish ham muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Huquqiy bazani takomillashtirish va investorlarning huquqlarini kafolatlash bo'yicha qabul qilinayotgan normativ hujjatlar esa investitsion xavflarni kamaytiradi.

Xorijiy investitsiyalarning asosiy ijobiy ta'siri:

- Kapital oqimining oshishi – neft-gaz sanoatini modernizatsiya qilish va yirik loyihalarni moliyalashtirish imkonini beradi.
- Zamonaviy texnologiyalar kirib kelishi – ishlab chiqarish jarayonlari ilg'or texnika va innovatsiyalar asosida yangilanadi.
- Ish o'rinlarining yaratilishi – yangi korxonalar va loyihalar hisobiga mahalliy aholi bandligi oshadi.
- Eksport salohiyatining kuchayishi – mahsulot sifati yaxshilanib, xalqaro bozorlarga chiqish kengayadi.

- Boshqaruv tajribasining oshishi – xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik orqali zamonaviy menejment usullari o‘zlashtiriladi.
- Iqtisodiy raqobatbardoshlikning ortishi – tarmoqda sog‘lom raqobat shakllanib, samaradorlik oshadi.

O‘zbekiston neft-gaz sanoatiga Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya va Yevropa davlatlarining yetakchi kompaniyalari faol ravishda investitsiya kiritib kelmoqda. Ushbu investitsiyalar asosan yangi konlarni o‘zlashtirish, mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish, zamonaviy burg‘ulash texnologiyalarini joriy etish hamda gaz va neftni qayta ishlash quvvatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan.

Xususan, Rossiya kompaniyalari uzoq yillik tajribaga tayangan holda qazib olish va transport tizimlarini rivojlantirishda ishtirok etmoqda. Xitoy investitsiyalari esa ko‘proq infratuzilma loyihalari, quvur tizimlari va energetika samaradorligini oshirishga qaratilgan. Janubiy Koreya kompaniyalari yuqori texnologiyali uskunalarni yetkazib berish va qayta ishlash zavodlarini modernizatsiya qilishda muhim o‘rin tutmoqda. Yevropa davlatlarining kompaniyalari esa ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarish tizimlarini shakllantirishga hissa qo‘shmoqda.

Bunday xorijiy investitsiyalar O‘zbekiston neft-gaz sanoatining raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bu hamkorlik mamlakatning energetika sohasidagi eksport salohiyatini kuchaytirib, global energiya bozoriga integratsiyalashuvini tezlashtirmoqda.

Investitsiya siyosatini takomillashtirish zarurati global energetika bozoridagi o‘zgarishlar O‘zbekiston uchun investitsiya siyosatini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining jadal rivojlanishi, an’anaviy neft-gaz resurslariga bo‘lgan talabning o‘zgarishi hamda energiya narxlaridagi tebranishlar investitsion yondashuvlarni yanada moslashuvchan qilish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Shu bilan birga, xorijiy investorlar uchun yanada qulay va barqaror huquqiy muhit yaratish, soliq va bojxona imtiyozlarini optimallashtirish hamda shaffof boshqaruv tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiya siyosatini takomillashtirish orqali neft-gaz sanoatining samaradorligini oshirish, yangi texnologiyalarni keng joriy etish va xalqaro hamkorlikni yanada mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Investitsiya siyosati nafaqat moliyaviy oqimlarni, balki "Intelligent Well" (aqlli quduq) va Big Data tahlili kabi innovatsion texnologiyalarni olib kirishni ham rag'batlantirishi kerak. Bu qazib olish jarayonidagi yo'qotishlarni kamaytirish va eskirgan konlarning samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, O'zbekiston neft-gaz sanoatida investitsiya siyosatini takomillashtirish mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, energiya resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash hamda milliy energetika salohiyatini oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur soha iqtisodiyotning tayanch tarmoqlaridan biri sifatida yalpi ichki mahsulot o'sishiga, eksport salohiyatining kengayishiga va sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy kapitalni jalb qilish hamda sohaga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etishga qaratilgan. Shu bilan birga, shaffoflikni oshirish, raqobatbardosh bozor mexanizmlarini shakllantirish va davlat boshqaruvida samaradorlikni kuchaytirish borasida ham muhim natijalarga erishilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, neft-gaz sanoatida investitsiya siyosatini yanada takomillashtirish uchun normativ-huquqiy bazaning barqarorligini ta'minlash, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish hamda innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish zarur. Ushbu chora-tadbirlar sohaning investitsion jozibadorligini oshirib, uning xalqaro raqobatbardoshligini kuchaytiradi hamda mamlakat iqtisodiy o'sishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi va iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta’minlash, neft-gaz tarmog‘ini moliyaviy sog‘lomlashtirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 09.07.2019 yildagi PQ-4388-son.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi (energetika va neft-gaz sanoatini modernizatsiya qilish yo‘nalishi)”. – Toshkent, 2023.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlari va yig‘ilish materiallari. “Neft-gaz sanoatida ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlash, Qashqadaryo viloyatidagi konlarni samarali o‘zlashtirish va modernizatsiya qilish chora-tadbirlari”. – Toshkent, 2024–2026 yu.

4.Султонов Ш.А., Навотова Д. И., Алиева Д. И. Қашқадарё вилояти минерал ресурслари ва улардан фойдаланишнинг географик хусусиятлари //Science and education in the modern world: challenges of the XXI century" Nur-Sultan, Kazakhstan. – 2020. – С. 12-15.

5.Olimova D.A. Qashqadaryo vohasi geosistemalarining texnogen landshaftlari va ularni ekologik vaziyatini optimallashtirish. Nukus davlat pedagogika instituti FAN va JAMIYAT (ILIM ham JAMIYAT). ISSN 2010-720X, 2024 (№3). (11.00.00; Milliy nashrlar, №10). –b. 46-48

6.Olimova D.A. Neft-gaz sanoati rivojlanishining iqtisodiy geografik nazariyalari va konseptual yondashuvlar. O‘zbekiston zamini. Ilmiy – amaliy va innovatsion jurnal 2025-yil 1–son Toshkent, 2025/1/17. – b. 70-73

7.Olimova D.A. Economic Geographical Features Of The Development Of The Oil And Gas Industry Of Kashkadarya Region. Texas Journal of Multidisciplinary Studies Volume 41. February 2025 ISSN NO: 2770-0003 (Йирик нашриётлар ва маълумотлар базаси, Directory of Open Access Journal №25) Journal Impact Factor: 8.015. – p. 34-38

8. Omonullayev O. H. Qashqadaryo viloyatida erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini komillashtirishning hududiy jihatlari //Экономика и социум. – 2025. – №. 6-2 (133). – С. 653-658.